



Bola yoshiga mos tasviriy hikoyalar tanlash va qayta hikoya qilishga o'rgatish metodikasi

Buzrukova Dilorom Mamirxonovna –

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: md_buzrukova@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-2780-9087>

G'ofurova Robiyaxon Muhammadjon qizi –

Farg'ona davlat universiteti
2-bosqich magistranti

Annotatsiya. *Tasviriy hikoyalar asosida qayta hikoya qilishga o'rgatish metodikasi bolalarning nutqni mantiqan to'g'ri tashkil etish, fikrni obrazli va izchil bayon qilish, lug'at boyligini kengaytirish, matn mazmunini anglash va mustaqil qayta tuza olish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Ushbu maqolada tasviriy hikoyaning ta'limiy ahamiyati, gap tuzish ko'nikmalari, fikrni mantiqiy yo'naltirish qobiliyati haqida so'z boradi. Shuningdek bolaning izchil nutqi, tafakkuri va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida to'g'ri tanlangan tasvirlar, ilmiy asoslangan metodik yondashuv, interfaol va multimodal texnologiyalardan foydalanish usullari haqida tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *tinglash, tahlil, ifodali, interfaol, bog'lanishli nutq, mustaqil bayon etish, sodda, qisqa, kommunikativ.*

Методика отбора иллюстрированных рассказов, соответствующих возрасту ребёнка, и обучения пересказу

Аннотация. Методика обучения пересказу на основе иллюстрированных рассказов способствует формированию у детей умений логически правильно организовывать речь, образно и последовательно излагать мысли, расширять словарный запас, понимать содержание текста и самостоятельно его преобразовывать. В данной статье рассматривается образовательное значение иллюстрированного рассказа, навыки построения предложений и способность логически направлять мысль. Кроме того, приводятся рекомендации по использованию правильно подобранных изображений, научно обоснованного методического подхода, интерактивных и мультимодальных технологий для развития связной речи, мышления и коммуникативной компетенции ребёнка.

Ключевые слова: слушание, анализ, выразительность, интерактивность, связная речь, самостоятельное изложение, простота, краткость, коммуникативность.

Methodology for selecting age-appropriate illustrated stories and teaching retelling skills

Annotation. The methodology of teaching retelling based on illustrated stories helps children develop the ability to organize speech logically, express thoughts figuratively and coherently, expand vocabulary, comprehend the content of a text, and independently reconstruct it. This article discusses the educational value of illustrated stories, sentence-construction skills, and the ability to guide one's thoughts logically. It also provides recommendations on the use of well-selected images, scientifically grounded methodological approaches, and interactive and multimodal technologies aimed at developing a child's coherent speech, thinking, and communicative competence.

Keywords: listening, analysis, expressiveness, interactive, coherent speech, independent narration, simple, concise, communicative.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning nutqiy rivojlanishini ta'minlash ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Ayniqsa, 6–7 yoshli bolalarning og'zaki nutqi, mantiqiy fikrlashi va bog'lanishli hikoya tuzish ko'nikmalari keyingi bosqich maktab ta'limiga puxta tayyorgarlik mezoni hisoblanadi. Tasviriy hikoyalar asosida qayta hikoya qilishga o'rgatish metodikasi bolalarning nutqni mantiqan to'g'ri tashkil etish, fikrni obrazli va izchil bayon qilish, lug'at boyligini kengaytirish, matn mazmunini anglash va mustaqil qayta tuza olish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Tasviriy matn, rasm asosidagi hikoya tuzish bolalarning semantik tafakkurini, nutqning kompozitsion tuzilishini tushunish qobiliyatini shakllantirishda yuqori samaradorlik berishini ko'rsatadi. Shuning uchun 6–7 yoshli bolalarga mos hikoyalarni tanlash, ularni qayta hikoya qilishga yo'naltirilgan metodik ishlanmalarni yaratish hozirda dolzarb masalalardan biridir.

Tasviriy hikoya – predmet, hodisa, shaxs yoki voqeaning belgilarini, xususiyatlarini, holatini tavsiflashga bag'ishlangan matndir. Bu turdagi matnlar bolaning e'tiborini bir nuqtaga jamlay olish, predmetlarni solishtirish, umumlashtirish, sifat, belgi, harakatlarni aniq ifodalash, tasviriy so'zlardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

6–7 yoshda bola tasviriy hikoya mazmunini tushunishga, asosiy belgilarni ajratishga va ulardan foydalanib matn tuzishga tayyor bo'ladi. D.B.Elkanin nazariyasiga ko'ra, hikoya qilib berishda mantiqiy tafakkur, diqqat rivojlanadi, o'zini tutish, jamoa oldida so'zga chiqish malakasi hosil bo'ladi, tasviriy nutq bolaning ichki nutqiga, mantiqiy fikrlashiga tayanch bo'lib xizmat qiladi. [1;222-b]

Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarda nutqni rivojlantirish, ayniqsa tasviriy hikoyalar asosida qayta hikoya qilish ko'nikmalarini shakllantirish, ularning tafakkuri, mazmunli nutqi, muloqotga kirishish malakalari hamda ijtimoiy tajribasining kengayishida muhim ahamiyat kasb etadi. 6–7 yoshli bolalar tasviriy obrazlar, voqealar ketma-ketligini idrok etish hamda mazmunni qayta ifodalashga psixologik jihatdan tayyor bo'ladi. Shu sababli tasvirlar asosida hikoya tuzish va uni qayta bayon qilish metodikasi maktabgacha ta'limning muhim tarkibiy qismidir. Bu yoshda bolalarning e'tibor, xotira, kuzatuvchanlik, tasavvur qilish qobiliyati faol rivojlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ravon nutqni rivojlantirish tasviriy hikoyalar tanlash va qayta hikoya qilish ko'nikmalarini shakllantirish masalasi O'zbekiston pedagogik, lingvistik va psixologik ilmiy maktablarida ham izchil tadqiq etilgan. Milliy tadqiqotlarda nutqning lingvistik asoslari, psixolingvistik mexanizmlari, muloqot muhitining ahamiyati, oilaning o'rni, tarbiyaviy vositalar, didaktik o'yinlar, logopedik yondashuvlar va metodik tizimlar alohida o'rganilgan.

Jumladan, Q.Qosimova ilmiy ishlarida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda monologik nutq, hikoya qilish ko'nikmalari, tasviriy nutq va izchil bayoniylikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, ravon nutq ko'proq bolalarning tengdoshlari bilan muloqoti, ijodiy o'yinlari, rasm asosida hikoya tuzish, ertak aytish mashqlari, mavzuli suhbatlar orqali shakllanadi. Olim pedagogik faoliyatda "faol nutqiy muhit" yaratishni zarur deb hisoblaydi.[1;60-b]

D.Ibodullayeva esa maktabgacha yoshdagi bolalarni qayta hikoya va ijodiy hikoya qilishga o'rgatish bo'yicha olib borgan izlanishlarida bunday mashg'ulotlar bolalarda fikrni izchil bayon etish, voqealar ketma-ketligini ushlab turish, so'z boyligini faollashtirish hamda nutqning emotsional ifodaviyligini kuchaytirish shartligini ilmiy asoslaydi. Muallif badiiy matn va tasviriy material tanlashda bolaning yosh xususiyatlariga moslik, syujetning

soddaligi, tasvirlarning aniq va ravshan bo'lishi, leksik-grammatik shakllarning bolalar uchun qiyin bo'lmashligi zarurligini ta'kidlaydi.[2; 35-b].

Maktabgacha yoshdagi bolalarda hikoya tuzish kompetensiyasini shakllantirish metodlari Rasulova tomonidan chuqur tahlil qilingan bo'lib, u rasm asosida hikoya qilishning nutq mantiqi, kompozitsiyasi va mazmuniy izchillikka ta'sirini alohida ko'rsatadi [4, 46-b].

Sharipova tadqiqotlarida qayta hikoya jarayonida tasavvur, tahlil, xotira va emotsional ifodaviylikning o'sishi ilmiy asoslangan [6, 36-b].

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirish masalalari rus pedagogik va psixologik maktabida alohida tadqiqot yo'nalishi bo'lib, ko'plab olimlar tasviriy material asosida hikoya tuzish va qayta hikoya qilishni nutq rivojining yetakchi vositasi sifatida asoslab bergan.

Rus olimlarining ilmiy qarashlarida, avvalo, bola tasvirni idrok etar ekan, undagi predmetlar, harakatlar va voqealar ketma-ketligi uning tafakkuri va so'z boyligining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi. Shu bois tasviriy hikoya bolani izchil, mantiqli, mazmunli nutq qurishga o'rgatishning samarali metodlaridan biri sifatida qaraladi.

L.S.Vigotskiy tasviriy hikoya va qayta hikoyalashning psixologik asoslarini o'rgangan holda bolada nutqning ikki muhim jihati – ichki nutq va tashqi nutqning uyg'unlashuvi aynan tasvirni sharhlash va qayta hikoyalash jarayonida sodir bo'lishini ko'rsatadi. Uning ta'kidlashicha, bola tasvirga qarab hikoya qilar ekan, mavzuni tanlash, mazmunni ajratish, voqeani ifodalash kabi murakkab aqliy jarayonlarni bajaradi va bu tafakkur rivojining yuqori bosqichiga olib keladi. Vigotskiy qayta hikoya qilishni "fikrning tashqi nutqqa aylanishi" deb baholab, bu jarayon nutq rivojlanishining tabiiy bosqichi ekanini asoslagan.[3; 21b].

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turli yosh guruhlarida qayta hikoya qilishga o'rgatish orqali nutq va muloqot kompetensiyalarini shakllantirishga bag'ishlangan tadqiqotlarda qayta hikoya qilish faqat nutq texnikasini takomillashtirish vositasi bo'lib qolmay, balki pedagogik muloqotni tashkil etish, bolalarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni hamkorlikda fikr almashishga jalb etish shakli sifatida yoritiladi. Tarbiyachining bolalar bilan birga qayta hikoya qilishi, qismlar bo'yicha hikoya qilish, rollarga bo'lib hikoyalash, savol-javob asosidagi qayta hikoya, o'yin va sahnalashtirish elementlaridan foydalanishini samarali metodlar sifatida ko'rsatish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar yoshiga mos tasviriy hikoyalar tanlash va rasmga qarab hikoya tuzishga o'rgatish tarbiyachidan birmuncha vaqt va mehnat talab qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining katta guruhlarida bolalarning nutqi qay darajada shakllanganligi aniqlanib, maxsus topshiriqlar ro'yxati ishlab chiqiladi, har bir bola bilan yakka tartibda mashg'ulot olib boriladi. Tasviriy hikoyalar tanlashda mazmunning sodd, hayotiy va bola tajribasiga mos bo'lishi, obrazlarning ravshanligi va voqealarning mantiqiy ketma-ketligi muhim omil hisoblanadi [1,115-b]. Tasviriy hikoyalar quyidagi talablar asosida tanlanadi:

- mazmunning sodd, tushunarli, bola tajribasiga yaqin bo'lishi
- obrazlarning aniq va ifodali tasvirlangan bo'lishi
- voqealar ketma-ketligining mantiqiyligi
- bolalarda emotsional qiziqish uyg'otishi
- hikoyaning tarbiyaviy g'oyaga ega bo'lishi
- tasvirdagi tafsilotlarning bolaga tushunarli darajada bo'lishi

Shu bilan birga tasvirlar bola tomonidan mustaqil kuzatiladigan ravonlikda bo'lishi, juda ko'p detallar bilan ortiqcha yuklanmasligi lozim.

Qayta hikoya qilishni o'rgatish usuli monologik nutqni rivojlantirishda hikoya tinglash va qayta hikoya qilish orqali amalga oshiriladi. Qayta hikoya qilish monologik nutqni

rivojlantiruvchi asosiy usullardan biri bo'lib, bola tayyor matnga tayansa-da, uni anglab, mustaqil ifodalaydi [1, 121–125-b].

Bolalar monologik matnlarni qayta aytib beradilar, haqiqiy yoki xayoliy voqealar haqida hikoya qiladilar va o'zlarining hikoyalarini to'qib chiqaradilar. Monologik nutqni, hikoya tuzish usulini o'zlashtirish pedagog uchun bolalarni diqqat bilan tinglash, ularga hikoya aytish va qayta hikoya qilishda yordam berish, shuningdek, hikoya yaratishda ko'maklashishni o'rganishni anglatadi. Qayta hikoya qilish – eshitilgan adabiy asarni ravon va ta'sirli tarzda yetkazib berishdir. Bu nisbatan sodda nutqiy faoliyat hisoblanadi, chunki bola tayyor mazmundan foydalanadi, muallifning nutqiy shakllaridan (lug'at, iboralar, tuzilma) va tarbiyachining o'qishdagi ifodali usullaridan kelib chiqadi. Biroq, bu mexanik takrorlash emas, balki matnni tushunib, erkin va hissiyot bilan aytib berishdir.

Hikoya qilishni o'rgatishda quyidagi mezonlar asos qilib olinadi:

- matnni mustaqil bayon qila olish;
- mazmunni to'liq ifodalash;
- izchillik;
- grammatik to'g'rilik;
- nutq madaniyati [1;133-b].

Qayta hikoya qilishni o'rgatish bolalarning yosh xususiyatini inobatga olgan holda guruhlarda bosqichma-bosqich murakkablashtiriladi: tanish ertak va hikoyalarni aytib berish, yangi o'qilgan asarlarni qayta hikoya qilish, hikoyachi shaxsini o'zgartirib (birinchi shaxsdan uchinchi shaxsga yoki aksincha) aytib berish, tarbiyachi rejasiga asoslangan hikoya, bolalar bilan birgalikda tuzilgan rejaga ko'ra hikoya, o'xshashlik asosida (qahramon yoki mavzu o'zgartirilgan holda) hikoya, o'yinchoqlar yordamida sahnalashtirilgan hikoya (barmoqlar motorikasi yoki qo'g'irchoq teatri) yoki bolalarning o'z tanloviga ko'ra hikoya aytib berish.

Tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilariga ma'lum bir mavzular asosida ko'rgazmali vositalarsiz hikoya tuzish topshiriqlarini berish o'rinli. Chunki bu yoshdagi bolalar lug'ati anchagina boy, fikrlashi teran shu bois bog'lanishli nutqqa ega bo'ladilar. Shuningdek, xotira asosida hikoya tuzish yoki qayta hikoya qilish ham samaraliroq hisoblanadi. Hikoya qilish jarayonida yo'l qo'ygan xatolari va yutuqlari aniqlanadi. Tarbiyachi bolalarning nutqini kuzatganda quyidagilar asosiy mezon sifatida olinadi:

- tavsiya etilgan matnni hikoya qilishda voqeani kattalarning yordamisiz, mustaqil bayon eta olishi;
- matn mazmunini to'liq ifodalay olishi;
- matn mazmunini bayon qilishda izchillikka rioya qilishi;
- ifoda vositalaridan foydalana olishi;
- nutqning ravonligi, tezligi;
- jummalarning grammatik jihatdan to'g'ri tuzilganligi;
- nutq madaniyatiga rioya etishi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning mantiqiy izchilligi, bayon etish strukturasi, so'z boyligi, grammatik shakllarning to'g'ri qo'llanishi tasviriy hikoyalar bilan ishlaganda sezilarli darajada faollashadi. Rasm asosida hikoya qilish bolaning ko'rish idroki, mantiqiy tafakkuri, tasavvuri va emotsional-ijodiy qobiliyatlarini bir vaqtda rivojlantiradi. Shuning uchun tasviriy hikoyalar nafaqat nutqiy rivojlanish, balki bola shaxsining intellektual yetukligiga ham bevosita ta'sir etuvchi metodik vositadir.

Tasviriy hikoyalar 6–7 yoshli bolalarda nutqning mantiqiy izchilligi, so'z boyligi, grammatik shakllarni qo'llash qobiliyatini sezilarli darajada faollashtiradi [1;142-b].

Hikoyalar tanlashda 6–7 yoshli bolalarga tanlanadigan tasviriy hikoyalar ilmiy-metodik mezonlarga mos bo'lishi lozim. Hikoya tanlash mezonlari — mazmuniy, til-uslubiy va tarbiyaviy talablarga mos bo'lishi kerakligi manbalarda asoslangan [8;62-b].

Hikoya quyidagi talablarga javob berishi kerak.

Mazmuniy mezonlar - mazmuni sodda, hayotiy va bolaga tanish bo'lishi, bir mavzuga yo'naltirilgan bo'lishi, tasviriy elementlar (belgi-sifatlar, harakat holati) yetarli bo'lishi, voqealar ketma-ketligi aniq ifodalangan bo'lishi lozim.

Til va uslub mezonlari - gaplar qisqa, sodda va tushunarli bo'lishi, sifatlovchi so'zlarning o'rtacha miqdorda bo'lishi, murakkab sintaktik konstruksiyalar kam bo'lishi, emotsional obrazlilik bolani qiziqtira olishi.

Hajm jihatdan 6–12 gap atrofidagi matnlar optimal hisoblanadi, ortiqcha tafsilotlar bo'lmasligi kerak, matn strukturasi kirish, asosiy tasviriy qism va yakun bo'lishi zarur.

Tarbiyaviy mezonlari esa, ijobiy xulq-atvor namunalari, muloqot madaniyati, tabiatga mehr, kattalar mehnatiga hurmat g'oyalari, bola shaxsiyatiga mos axloqiy me'yorlarni targ'ib etishi lozim.

Qayta hikoya qilishga o'rgatish metodikasining tayyorlov bosqichida bolada matnni idrok qilishga tayyorgarlik ko'nikmalari shakllantiriladi. Predmet va rasmlarni kuzatish mashqlari, asosiy belgilarni ajratish mashqlari (rang, shakl, kattalik, holat), savol-javob asosida suhbat, rasm kompozitsiyasini tahlil qilishga o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Tarbiyachi tasviriy rasmni ko'rsatadi, asosiy elementlarni birgalikda topadi, ularni guruhlariga ajratishni o'rgatadi. Tarbiyachi va bolalarning hikoya ustida ishlash jarayoni asosiy bosqich bo'lib, bu bosqichda metodik ketma-ketlik muhim hisoblanadi va quyidagilarni o'z ichiga oladi.

1. rasmni to'liq kuzatish va umumiy mazmunni tushuntirish.
2. rasmning har bir detalini tahlil qilish.
3. qisqa savollar orqali bola fikrini faollashtirish ("Bu nima?", "Qayerda turibdi?", "U qanday?").
4. tarbiyachining namunaviy hikoyasi.
5. bolaning o'z mustaqil hikoyasi.
6. tuzilgan hikoyaga jamoaviy tahlil.

Misol: "Kuz manzarasi" rasmi asosida hikoya Bola predmetlarni nomlaydi: daraxtlar, barglar, osmon, bolalar, kiyimlari. So'ng ularning belgi va harakatlarini tavsiflaydi.

Mustahkamlash bosqichida bolaning mustaqilligi oshadi, xotirasi va nutqning grammatik tuzilishi mustahkamlanad, eslab qolish qobiliyati rivojlanadi, shu bois har qanday faoliyat yakunida bu bosqichdan unumli foydalanish zarur va quyidagilarga amal qilish kerak;

- rasm bo'yicha qisqa reja tuzish: "nima?", "qayerda?", "nima qilmoqda?"
- juftliklarda qayta hikoya;
- ketma-ket rasmlar asosida mazmunni izchil bayon qilish;
- eshitilgan hikoyani qayta aytib berish;
- turli variantlarda (uzun–qisqa, tasviriy–voqea) qayta hikoya qilish.

Tasviriy hikoyalar asosida qayta hikoya qilishning samaradorligi quyidagi pedagogik shartlarni ta'minlash orqali oshadi:

- ko'rgazmalilikning doimiy qo'llanishi;
- individual yondashuv (nutqi sust bolalar bilan qo'shimcha ishlash);
- lug'at ishlarini muntazam tashkil etish;
- bola nutqidagi grammatik xatolarni muloyimlik bilan tuzatish;
- ortiqcha tanqid qilmasdan, rag'batlantiruvchi muhit yaratish;
- barcha bolalarni faol ishtirokini ta'minlash;
- hikoya qilish jarayonida ijodiylikni qo'llab-quvvatlash (tasvirni davom ettirish, yangi detal qo'shish).

Faoliyat jarayonida tarbiyachi-pedagog quyidagi metodlardan maqsadli foydalanishi zarur;

- Kuzatuv va tahlil metodi – rasmning asosiy belgilarini aniqlash.
- Savol-javob metodi – mantiqiy fikrlashni faollashtirish.
- Namuna metodi – tarbiyalanuvchi namunaviy hikoya aytadi.
- Qayta hikoya qilish metodi – eshitilgan matnni qayta bayon etish.
- Rasm asosida matn tuzish metodi – tasviriy tafakkurni kuchaytiradi.
- Rolli hikoya qilish – obrazga kirib hikoya aytish bolani qiziqtiradi.
- Zanjirsimon hikoya qilish – har bir bola hikoyaning davomiga bitta gap qo'shadi.

Qayta hikoya qilishni bosqichma-bosqich tashkil etish, rasmni tahlil qilish, reja tuzish, rolli hikoya va zanjirsimon hikoya kabi metodikalar samarali hisoblanadi [7; 27–30-b].

Bolalar nutqini o'rganishda eng samarali usul, shubhasiz, suhbat usulidir. Bundan tashqari, bolalarning atrof-muhitdagi narsalarni kuzatishi va ularni tahlil qilishi, shuningdek, sayrlar davomida tashkil etiladigan savol-javob shaklidagi muloqotlar muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, bolalarning bog'langan nutqini rivojlantirishda ularning shaxsiy tajribasi va hayotiy yo'lini o'rganishga asoslangan kuzatuvlar ham katta rol o'ynaydi. Tasviriy hikoyalar bolalarning monologik nutqini shakllantiruvchi kompleks pedagogik vosita bo'lib, uning samaradorligi tanlangan tasvirning sifati, pedagogning metodik yondashuvi, bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish bilan bevosita bog'liqdir. Mazkur metodika tizimli qo'llangan taqdirda, bolalarda nutqning izchilligi, mazmunlilik, mantiqiy bog'liqlik, grammatik to'g'rilik va lug'at boyligining faollashuvi sezilarli darajada oshadi.

XULOSA

Tasviriy hikoyaning ta'limiy ahamiyati shundaki, bolalarning og'zaki nutqini kengaytiradi, lug'at zaxirasini boyitadi, gap tuzish ko'nikmalarini mustahkamlaydi, izchil bayon qilishni o'rgatadi, fikrni mantiqiy yo'naltirishga yordam beradi, monologik nutqni shakllantiruvchi markaziy vosita hisoblanadi. Shuningdek tasviriy hikoyalar bolaning obrazli tafakkurini kuchaytiradi, ularni mustaqil nutqiy faoliyatga tayyorlaydi, nutq mexanizmlarining bosqichma-bosqich murakkablashuviga yordam beradi. Tasviriy hikoyalar tanlash va qayta hikoya qilishga o'rgatish metodikasi 6–7 yoshli bolalarning nutqiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Tasviriy hikoyalar bolalarda obrazli tafakkurni, nutq izchilligini va grammatik konstruksiyalarni qo'llashni rivojlantiradi [1;212-b].

Yuqoridagi fikrlardan umumiy xulosa sifatida shuni alohida ta'kidlash lozimki, to'g'ri tanlangan matn, puxta metodik yondashuv, ko'rgazmali vositalardan samarali foydalanish bola nutqining ravon, tasviriy va mantiqiy bo'lishiga xizmat qiladi. Tasviriy hikoyalar asosida qayta hikoya qilishga o'rgatish metodikasi bolalarda nafaqat nutqiy rivojlanishni, balki axloqiy-estetik tarbiyani ham ta'minlaydi. Rasm mazmunidagi ijobiy obrazlar, yaxshiyomon xatti-harakatlarning aks ettirilishi bola dunyoqarashining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, qayta hikoya qilish jarayoni bolada tasavvur, kuzatuvchanlik, fikrni izchil bayon qilish, grammatik tuzilishlarni to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Qayta hikoya qilish metodikasi bola nutqining ravon bo'lishi, mustaqil fikrlashi va ijtimoiy faolligini oshiradi [10;19-b].

Natijada bolalar maktab ta'limiga nutqiy va aqliy jihatdan tayyor bo'lib boradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qayta hikoya qilishni o'rgatish bosqichlari, mashq turlari, pedagogik ko'rsatmalar va baholash mezonlarini o'z ichiga olgan batafsil qo'llanmalar ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Shuning uchun har bir yosh guruhiga mos, mavsumiy, axloqiy, ijtimoiy va ekologik mazmunni qamrab olgan rasmlar syujetlar to'plamini elektron va bosma ko'rinishda ishlab chiqish yo'lga qo'yilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayniqsa, ota-onalarga tasviriy hikoyalar bilan uyda ishlash tartibi, bola

bilan suhbat qurish, mazmunni mustahkamlash bo'yicha qisqa yo'riqnomalar berish bolaning nutqiy rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Q.Shodiyeva Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent, 2015.
2. D.R.Babayeva Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: 2016.
3. M.Yo'ldosheva Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: 2020.
4. S.Rasulova "Maktabgacha yoshdagi bolalarda hikoya tuzish kompetensiyasini shakllantirish usullari." Pedagogika va psixologiya jurnali, №3, 2022, 45–52-betlar.
5. N.Abdullayeva Tasviriy hikoyalar asosida muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish. Toshkent: Ziya-Med, 2023.
6. L.Sharipova "Hikoyani qayta aytish jarayonida yosh bolalarning tasavvur va tahlil qilish qobiliyatlari." Maktabgacha ta'lim nazariyasi, №2, 2021, 30–38-betlar.
7. J.Tursunov Maktabgacha ta'limda innovatsion metodlar. O'quv qo'llanma. Toshkent: Ma'rifat, 2020.
8. Nazarova G. "Bolalar uchun mos adabiy matnlarni tanlash mezonlari va metodik talablari." Ta'lim va rivojlanish, №4, 2023, 57–63-betlar.
9. F.Samarova "Tasviriy materiallar asosida og'zaki nutqni rivojlantirishning samarali strategiyalari." Maktabgacha ta'lim amaliyoti, №1, 2022, 18–25-betlar.
10. E.Razbayeva Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni hikoya qilib berishga o'rgatish. – Toshkent: 2021.